



**ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING LEKSIK
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING INTERFAOL METODLARI**

Qosimova Sevara

Alfraganus universiteti

O'zbek tili filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'quvchilar orasida Ona tili darslarida kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy asoslarini aniqlash, nutqiy va leksik kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy talqin qilish va bundan tashqari Ona tili darslarida interfaol yondashuv asosida o'quvchilarning leksik kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari tahlilini shakllantirish, barcha tamoyillari bo'yicha bilim, ko'nikma, malakani rivojlantirish yo'llari tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *til, imlo, diktant, kitobxonlik, leksik kompetensiya, interfaol yondashuv, ona tili dasturi va darsliklari.*

Аннотация: *Целью данной статьи является выявление теоретических основ развития компетенций на уроках родного языка у учащихся, теоретическая интерпретация развития речевых и лексических компетенций, а также, кроме того, формулирование анализа экспериментально-тестовой работы по развитию лексических компетенций учащихся на уроках родного языка на основе интерактивного подхода, анализ способов формирования знаний, умений и навыков по всем принципам.*

Ключевые слова: *язык, орфография, диктант, чтение, лексическая компетенция, интерактивный подход, программа по родному языку и учебники.*

Abstract: *This article aims to identify the theoretical foundations of the development of competencies in native language lessons among students, to provide a theoretical interpretation of the development of speech and lexical competencies, and, in addition, to formulate an analysis of experimental and test work on the development of lexical competencies of students in native language lessons based on an interactive approach, and to analyze ways to develop knowledge, skills, and qualifications according to all principles.*

Keywords: *language, spelling, dictation, reading, lexical competence, interactive approach, native language program and textbooks.*

Ona tili darslarida o'quvchilarning leksik kompetensiyasini rivojlantirish juda muhim. Interfaol metodlar o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi, bu esa ularning so'z boyligini o'zlashtirish va qo'llash jarayonini yanada samarali qiladi.

O'qitish jarayonida, pedagogik texnologiyalar talablari asosida ifoda etilgan, o'quv maksadlariga erishiladi. Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashgan davrda o'qitish samaradorligi, asosan, o'quvchining o'qitish jarayonidagi o'rni, pedagogning unga



bo'lgan munosabatiga bog'lik bo'ladi. Bu yerda o'qitish texnologiyasining ikki turini ajratib ko'rsatish mumkin: avtoritar va shaxsga yo'naltirilgan.

Avtoritar texnologiyada, pedagog yagona sub'yekt sifatda namoyon bo'ladi, o'quvchilar esa fakatgina «ob'yekt» vazifasini bajaradi xolos. Bunda o'quvchining tashabbusi va mustaqilligi yo'qoladi, o'qitish majburiy tarzda amalga oshiriladi. Odatdagi an'anaviy o'qitish, avtoritar texnologiyaga taalluqlidir. Bunda, avvalo Y.A.Komenskiy tomonidan ifoda etilgan, didaktika tamoyillariga asoslangan o'qitishning «guruh - dars» tizimida tashkil etish nazarda tutiladi. Hanuzgacha dunyoda eng ko'p tarqalgan o'qitishning «guruh – dars» tizimi hisoblanadi, u quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- yoshi va tayorgarlik darajasi taxminan bir xil bo'lgan o'quvchilar guruhni (sinfni) tashkil etadi;
- guruh (sinf, oqim) yagona o'quv reja, yagona o'quv dasturlar va yagona mashg'ulotlar jadvali bilan shug'illanadi;
- mashg'ulotlarning asosiy birligi dars bo'lib, u bitta fanning bitta mavzusiga bag'ishlanadi va o'qituvchi tomonidan boshqariladi;
- o'quv kitoblari asosan uy ishlari uchun qo'llaniladi.

An'anaviy o'qitish asosan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib, shaxsning rivojlanishini ko'zda tutmaydi.

An'anaviy o'qitish asosini, Y.A.Komenskiy tomonidan tuzilgan pedagogika tamoyillari tashkil etadi:

- ilmiylik;
- tabiatga monandlik (o'qitish rivojlanish bilan belgilanadi va shakllanmaydi);
- uzviylik va tizimlilik;
- o'zlashtiruvchanlik “ma'lumdan noma'lumga, soddadan murakkabga”;
- mustahkamlash “takrorlash”;
- ongliklik va faollik;
- nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi;
- yoshi va individual xususiyatlarini hissobga olish.

Keskin yuksalish davrigacha (XX asrning birinchi yarmigacha), fan, texnika va texnologiyalar rivoji evolyusion, past sur'atlarda amalga oshar edi.

Shuning uchun ketma-ket keluvchi avlodlarning rivojlanish darajasi deyarli farq qilmas edi. Bunday sharoitlarda Ya.A.Komenskiyning o'qitishning avtoritar texnologiyasi, an'anaviy «guruh – dars» tizimi dunyoga keldi.

Ilmiy texnik taraqqiyotining keskin yuksalish davrida (XX asrning ikkinchi yarmi), fan, texnika, texnologiyalar yuqori sur'atlarda rivojlanayotgan davrda, bir avlod hayoti davomida fanning rivoji insoniyatning butun tarixidagidan ko'ra ko'prok bo'lgan bu davrda, o'qitishning an'anaviy tizimi (shu jumladan zamonaviy an'anaviy o'qitish) o'z umrini oxiriga yetdi. Hozirgi zamon avlodining rivojlanish sur'ati oldingilardan ko'ra ancha yuqori bo'lganligi sababli, o'qitishning an'anaviy tizimi,



rivojlanishga tusqinlik qila boshladi. Bunday sharoitlarda taraqqiyot, faqat har bir shaxsning mavjud imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish asosida amalga oshirilishi mumkin. Axborotning hajmi, xilma-xilligi, egallashga moyilligi va vositalarining yetarliligi samarali individual va mustaqil o'qitishni tashkil etish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratadi. O'qitishni jadallashtirish maqsadida, pedagogning o'quvchiga bo'lgan munosabati «sardor»likdan, uning «sherigi»ga aylanishi zarur.

O'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalariga quyidagi asosiy tamoyillar xos bo'ladi:

- insonparvarlik, ya'ni insonga har tomonlama hurmat va muhabbat ko'rsatish, unga yordamlashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash, zurlashdan tula voz kechish;

- hamkorlik, ya'ni pedagog va o'quvchilar munosabatidagi demokratizm, tenglik, sheriklik;

- erkin tarbiyalash, ya'ni shaxsga uning hayot faoliyatini keng yoki tor doirasida tanlab olish erkinligi va mustaqillikni berish, natijalarini tashqi ta'sirdan emas, ichki xissiyotlardan keltirib chiqarish. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning kommunikativ asosi – pedagogik jarayonda o'quvchiga insoniy - shaxsiy yondashuv hisoblanadi.

Muhabbat va hurmat, unga yordamlashish xislatlari asosida sivilizatsiya shakllanib keldi.

Millatimiz shakllanishi bilan birgalikda xalqimizning mentaliteti insonga muhabbat va hurmat ko'rsatish, unga yordamlashish xislatlari asosida yuzaga chiqdi. Eng avvalo, yoshlarimizga nisbatan muhabbat yaqqol namoyon bo'ladi. Xalqimiz bolalarga «siz» deb munosabat qilur, kattalar ularga birinchi bo'lib «salom»beradilar.

Yaponiyaning zamonaviy pedagog-olimlari bolani kuniga 200 martagacha erkalatishni tavsiya beradilar. Bu zamonaviy g'oyalarning debochasi, buyuk ajdodimiz Al-Buxoriyning «Hadis» kitobida «Bolaga rahimdillik qilmok, uni o'pib quchoqlamoq haqida» bobida yoritilgan.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarining o'zagi shaxslar o'rtasidagi yuqori qadriyatlarga, teng huquqlikka asoslangan munosabat hisoblanadi.

Bu kadriyatlar Al-Buxoriyning «Hadis» kitobida «Shirin so'z odam haqida», «So'kmoq va la'natlamoq taqiqlanganligi haqida» boblarida namoyon etilgan. Unda shaxsni so'kish uni o'ldirish bilan tenglashtirilgan.

Xulosa kilib ta'kidlash lozimki, ajoyib shaxsiy fazilatlarga asoslangan ta'limimiz, jahon fanining shakllanishiga va rivojiga o'zining munosib hissa qo'shgani bilan ajralib turadi. Abu Ali ibn Sino, A.Beruniy, Al-Xorazmiy, M.Ulug'bek, Al-Buxoriy, A.G'ijduvoni, B.Naqshbandiy, A.Navoiy, Z.Bobur kabi buyuk ajdodlarimizning ta'limoti, jahon sivilizatsiyasidagi bebaho ulushini bugungi kunda butun dunyo tan olmoqda.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



Pedagogika fanining rivojlanishiga Yevropa buyuk pedagog olimlari hissa qo'shgan, jumladan: italiyalik Vittarino de Feltre, fransuz Fransua Rable, ingliz Tomas Mor, nemis A.Distrverg, rus K.D.Ushinskiy va boshqalarni ta'kidlab o'tish mumkin.

Bo'lar gumanistik tarbiyani, mustaqil fikrlashni rivojlantirishini, ijodni, faolligini, ko'rgazma materiallarni keng foydalanishini, nazariy ta'limni mehnat bilan bog'lanish tarafdori edilar. Ular pedagogik jarayonda o'quvchilarni sub'yekt deb hisoblar edilar.

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar insonning aqliy qobiliyatlarini ochishiga xizmat qiladi.

Individual yondashuvning zamonaviy yangi talqini quyidagilardan iborat:

- o'rtacha o'quvchiga yo'naltirishdan voz kechish;
- shaxsning yaxshi xislatlarini izlash;
- shaxs rivojlanishining individual dasturlarini tuzish.

Shaxsiy yondashishda birinchi navbatda quyidagilar zarur bo'ladi:

- har bir o'quvchi qiyofasida noyob shaxsni ko'rish, uni hurmat qilish, tushunish, qabul qilish, unga ishonish. Pedagogda barcha o'quvchilar iste'dodli degan ishonch bulishi kerak.

- shaxsga, yutuqni maqullovchi, qo'llab-quvvatlovchi, xayrixoh vaziyatlar yaratish, ya'ni o'qish, qoniqish va xursandchilikni olib kelish kerak.

- bevosita majburlashga yo'l ko'ymaslik, qoloqlikka va boshqa kamchiliklarga urg'u bermaslik, uning nafsoniyatiga tegmaslik.

- pedagogik jarayonda, o'quvchilarga o'z qobiliyatlarini ruyobga chiqarishga imkoniyat yaratish va ko'maklashish.

Oliy o'rta maxsus va kasbiy ta'lim tizimi uchun, o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ishbilarmonlik o'yinlari;
- muammoli o'qitish;
- tabaqalashtirilgan o'qitish;
- dasturlashtirilgan o'qitish;
- kompyuterlashtirilgan o'qitish;
- modulli o'qitish.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari ilmiy-texnikaviy taraqqiyot jadallashtirilgan davrida rivojlangan davlatlarda shakllantirilganligini inobatga olgan holda ular chuqur ildizlarga ega ekanligini ta'kidlash tug'ri bo'lar edi.

Qadimiy faylasuf Sokrat o'z chiqishlarida savol va javob usulini ishlatar edi. Bu usul haqiqatni bilib olish uchun yordam berar edi. Qadimiy Rim pedagogi M.F.Kventilian har bir shogirdga e'tibor va diqqat bilan yondashishni tavsiya bergan edi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



O'rta asr Sharqning buyuk olimu mutafakkirlari tomonidan yirik pedagogik meros qoldirilgan. Asrlar, ming yillar davomida shaxsga yangicha qarash quyidagilardan iborat bo'ladi:

- pedagogik jarayonda shaxs ob'yekt emas, sub'yekt hisoblanadi;
- har bir o'quvchi qobiliyat egasi, ko'pchiligi esa iste'dod egasi hisoblanadi;
- yuqori etik va estetik qadriyatlar (sahiylik, muhabbat, mehnatsevarlik, vijdon va boshqalar) shaxsning ustivor xislatlari hisoblanadi.

Munosabatlarni demokratlashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'quvchi va pedagog huquqlarini tenglashtirish;
- o'quvchining erkin tanlab olish huquqi;
- xatoga yo'l qo'yish huquqi;
- o'z nuqtai nazariga ega bo'lish huquqi;
- pedagog va o'quvchilar munosabati zayli : ta'qiqlamaslik; boshqarish emas, birgalikda boshqarish; majburlash emas, ishontirish; buyurish emas, tashkil etish; chegaralash emas, erkin tanlab olishga imkon berish.

Yangi munosabatlarning asosiy mazmuni, hozirgi zamon sharoitida samarali natija bermaydigan va g'ayriinsoniy hisoblanadigan zo'ravonlik pedagogikasidan voz kechishdir. Muammo bu tamoyilni mutloqlashtirishda emas, balki uning oqilona mezonlarini aniqlashdadir. Umuman olganda tarbiya jarayonida zo'ravonlik mumkin emas, ammo jazolash insonni kamsitadi, ezadi, rivojlanishini susaytiradi, unda qulchilik xususiyatlarini shakllantiradi.

Erkin o'qitish quyidagilar bilan belgilanadi:

- o'quv materialiga qiziqish, uyg'otish, bilishga va faol ijodiy fikrlashga rag'barlantirish;
- o'quvchilarning mustaqilligi va tashabbusiga tayanish;
- jamoa orqali bilvosita usullar bilan talablarni amalga oshirishni ta'minlash.

Yangi individual yondashuvning mohiyati shundaki, u ta'lim tizimida o'quv fanidan o'quvchiga emas, o'quvchidan o'quv fani tomoniga harakatlanishni taqozo etadi, o'quvchilarning mavjud imkoniyatlarini inobatga olib, ularni rivojlantirish, takomillashtirish va boyitishga qaratilgan bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida o'tkazilayotgan tub islohotlarning mazmuni bugungi kunda ta'lim jarayonini loyihalashga yangicha yondashuv bilan boyib bormoqda.

Ta'limga texnologik yondashuv ta'lim jarayonini aniq vositalar yordamida samarali boshqarish va qo'yilgan o'quv maqsadlariga -muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlaydi.

Pedagogik texnologiya – vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagog jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizim.

Ta'lim texnologiyalari pedagogik faoliyatning ma'lum sohasini qamrab oladi.



Didaktik jarayon bosqichlarini muayyan ketma-ketlikda qurish o'quvchilarning bilim faoliyatini mavzu bo'yicha belgilangan maqsadlarga mos holda tanlangan o'qitish metodlari yordamida tashkil etish demakdir. O'qitish metodlari o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra ma'lum pedagogik nazariyaga asoslangan u yoki bu tasnifga tegishli bo'ladi. Ularning samaradorligi to'g'risida fikr yuritilganda o'qitish jarayonini izga soladigan va uni maqsadli yo'naltira oladigan, o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatini ta'minlash barcha ta'lim muassasalarining oldiga qo'yilayotgan maqsadga nechog'lik erishilayotganini ko'zda tutish kerak. Yoxud o'qitish metodlari bevosita ta'lim amaliyoti bilan aloqador konsepsiyacidir. "O'qitish metodi dastlab pedagog ongida faoliyatning umumlashgan loyihasi tarzida mavjud bo'ladi. Bu loyiha amaliyotga o'qituvchi va o'quvchi faoliyatlarining o'zaro tutashuvi tekisligida, o'qitish va o'qishning aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metodning boshqa namoyon bo'lish shakllari yo'q, sababi umumiy holda o'qitish metodi o'zida faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi". (O'.Q. Tolipov, M. Usmonboyeva)

Pedagogik nashrlarda o'qitish metodlarini faol va sust guruhlariga ajratish hollari mavjud. Agar har bir metod belgilangan u yoki bu maqsadni yechishda o'z o'rnida ishlatilsa, shubhasiz, faoldir. Pedagogik texnologiyalar ham darsda o'quvchilar faoliyatining yuqori darajasini ta'minlash asosida oldindan belgilangan maqsadga erishishga qaratiladi. Shu boisdan, bu faslda hali pedagogik amaliyot uchun notanish bo'lgan chet el didaktikasiga oid metodlar haqida fikr yuritiladi.

Amerikaning "Street law" (ko'cha qonuni) dasturi bugungi kunda yer yuzining ko'plab davlatlari tomonidan "asr" ga olingan va ta'lim makoniga o'rnashib qolayapti. Bunga sabab dasturdan o'rin olgan yuzlab o'qitish metodlarining faolligi, jozibaligi va ta'sirlanganligidir. Ular yordamida o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifodalash, axborotlarni tanqidiy qabul qilish, haq-huqularini anglab yetish kabi imkoniyatlarga tezda ega bo'ladilar. O'qituvchi esa didaktik jarayonni qurishda bu metodlardan oqilona foydalanmog'i, ularni mavzu bo'yicha o'quv elementlarining murakkabligi va vaqt tig'izligiga qarab chalg'ishtirmog'i lozim. Quyida "Street law" dasturidagi ba'zi metodlar kiritiladi.

"Aqliy hujum" metodining mohiyati jamoa hamkorligi asosida muammoni yechish jarayonlarini vaqt bo'yicha bir qancha bosqichlarga (g'oyalarni generatsiyalash, ularni tanqidiy va konstruktiv holatda ishlab chiqish) ajratishdan iborat.

Dars jarayonida aqliy hujumdan maqsadli foydalanish ijodiy, nostandart tafakkurlashni rivojlantirish garovi hisoblanadi. "Aqliy hujumni" uyushtirish bir muncha sodda bo'lib, undan ta'lim mazmunini o'zgartirish jarayonida foydalanish bilan birgalikda ishlab chiqarish muammolarining yechishni topishda ham juda qo'l keladi. Dastlab guruh yig'iladi va ular oldiga muammo qo'yiladi. Bu muammo yechimi to'g'risida barcha ishtirokchilar o'z fikrlarini bildiradilar. Bu bosqichda hech kimning o'zga kishi g'oyalariga hujum qilish yoki baholashga haqqi yo'q.

Demak, "aqliy hujum" yo'li bilan qisqa vaqtda o'nglab g'oyalarni yuzaga chiqish imkoniyatlari mavjud bo'ladi. Aslini olganda g'oyalar sonini qo'lga kiritish asosiy maqsad





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



emas, ular muammo yechimini oqilona ishlab chiqish uchungina asos bo'ladilar. Bu metod shartlaridan biri hech qanday tashqi ta'sirsiz qatnashuvchilarning har biri faol ishtirokchi bo'lish kerak. Bildirilgan g'oyalarning besh yoki oltitasigina asosiy hisoblanib muammo yechimini oqilona topishga salohiyatli imkoniyatlar yaratadi.

Shunday qilib, "aqliy hujum" qoidalarini quyidagicha belgilash mumkin:

- olg'a surilgan g'oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi;
- ish sifatiga emas, soniga qaratiladi, g'oyalar qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi;
- istalgan g'oyalarni mumkin qadar kengaytirish va rivojlantirishga harakat qilinadi;
- muammo yechimidan uzoq g'oyalar ham qo'llab-quvvatlanadi;
- barcha g'oyalar yoki ularning asosiy mag'zi (farazlari) qayd etish yo'li bilan yozib olinadi;
- "hujum"ni o'tkazish vaqti aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart;
- beriladigan savollarga qisqacha (asoslanmagan) javoblar berish ko'zda tutilishi kerak.

Vazifasi: "Aqliy hujum" qiyin vaziyatlardan qutilish choralarini topishga, muammoni ko'rish chegarasini kengaytirishga, fikrlash bir xilliligini yo'qotishga imkon beradi. Eng asosiysi, muammoni yechish jarayonida kurashish muhitidan ijodiy hamkorlik kayfiyatiga o'tiladi va guruh yanada jipslashadi.

Ob'yekti: qo'llanish maqsadiga ko'ra bu metod universal hisoblanib tadqiqotchilikda (yangi muammoni yechishga imkon yaratadi), o'qitish jarayonida (o'quv materiallarini tezkor o'zlashtirishga qaratiladi), rivojlantirishda (o'z-o'zini birmuncha samarali boshqarish asosida faol fikrlashni shakllantiradi) asqotadi.

Qo'llanish usuli: "Aqliy hujum" ishtirokchilari oldiga qo'yilgan muammo bo'yicha har qanday mulohaza va takliflarni bildirishlari mumkin. Aytilgan fikrlar yozib boriladi va ularning mualliflari o'z fikrlarini qaytadan xotirasida tiklash imkoniyatiga ega bo'ldi. Metod samarasi fikrlar hilma-hilligi bilan tavsiflanadi va hujum davomida ular tanqid qilinmaydi, qaytadan ifodalanmaydi. Aqliy hujum tugagach, muhimlik jihatiga ko'ra eng yaxshi takliflar generatsiyalanadi va muammoni yechish uchun zarurlari tanlanadi.

"Ajurli arra" metodi tuzilishi jihatdan o'zida quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Topshiriqlarni bo'lish: "Topshiriq va matnli materiallar bir nechta asosiy qismlarga (yoki mavzular)ga qir qiladi".
2. Birlamchi guruhlar: "Har bir guruh a'zolari qir qilgan mavzuni oladilar va ekspertga aylanadilar".
3. Ekspert guruhlar: "Qo'lida bir mavzuga oid o'quv topshiriqlari mavjud bo'lgan o'quvchilar mavzuni muhokama qilish, boshqalarga o'rgatish rejasini egallash uchun ekspert guruhlariga birlashadilar".
4. Birlamchi guruhlar: "O'quvchilar o'zlarining birlamchi guruhlariga qaytadilar va ekspert guruhlarda o'rganganlarini o'qitishadi".



Izoh: “Ajurli arra” mohiyatiga aniqlik kiritish uchun ba’zi bir tavsiyalarni yoritish lozim.

1. O‘qitish jarayonida bu tarzda yondashilganda o‘quvchilarning hamkorlikda ishlashga va qisqa vaqt ichida katta hajmdagi axborotlarni o‘zlashtirishga imkon tug‘iladi.

2. U yoki bu faoliyatni darsda amalga oshirish uchun o‘quvchilarga boshlang‘ich axborotlarni uzatish zarurati tug‘ilsa, ma’ruza o‘rnini bosa oladigan samarali instrumentariy hisoblanadi.

3. O‘qituvchi murakkab mazmunli mavzular bo‘yicha o‘quvchilarni darsga tayyorlash uchun oldindan ularning har biriga mo‘ljallangan alohida axborotli paket tayyorlaydi. Unda darslikdan, qo‘shimcha tarzda gazeta, jurnal, maqolalardan materiallar bo‘lishi kerak.

4. Har bir o‘quvchi 2 guruh tarkibida ishtirok etadi: dastlab “o‘z uyi” (birlamchi) guruhiga birlashib, o‘quv elementlarini mustaqil o‘rganishadi. Ekspert guruhini tezda tashkil etish uchun o‘quvchilar olgan axborotli paketlarda har bir mavzuga oid materiallar bir hil rangdagi qog‘ozlarga yozilgan yoki rangli qalam bilan qog‘ozning biror bir burchagi bo‘yalgani ma’qul.

5. Har bir guruhda 3 tadan 5 tagacha kishi o‘quvchi soniga qarab bo‘lishi mumkin. Har bir o‘quvchi “o‘z yo‘l”dagilarni va qayta uchrashish joyini aniqlab olish kerak.

6. O‘qituvchi o‘quvchilarga “rangli” topshiriqlar asosida guruhga birlashishini taklif etadi va ular alohida mavzular bo‘yicha ekspertga aylanadi. Misol uchun, “qizil” larni honasi oxirida, “ko‘k”larni esa auditoriya yo‘lakchasida uchrashishi belgilanadi. Har bir ekspert guruhda 3tadan kam o‘quvchi bo‘lmasligi kerak.

7. Guruhlarga axborotli paket tarqatiladi. Har qaysi guruh turli hil materiallar to‘plamini olishlari va ularni o‘qishi, muhokama qilishi, aynan shu axborotlar bo‘yicha ekspertga aylanishi lozim. O‘quv materiallari bo‘yicha “ekspert” bo‘lishi uchun o‘quvchilarga vaqt yetarli bo‘lishi kerak. Bu uchun agar materiallar murakkab va katta bo‘lsa, ehtimol bir dars to‘liq talab qilinadi.

8. O‘quvchilarga quyidagicha topshiriqlar beriladi:

- paketdagi materiallarni qunt bilan o‘rganing va muhokama qiling;
- bir-biringizdan so‘rang va o‘quv materiallarini har biringiz tushinib olganingizga ishonch hosil qiling;
- o‘z uyingiz guruhini o‘qitish zarurligini hisobga olib materiallarning muhim o‘quv elementlariga e’tiborni qarating.

9. O‘quvchilar o‘z uylariga qaytishlarini iltimos qiling. Har biri o‘z “uyi” – guruhiga axborot beradi. Shaksiz, “uy” guruhida ekspert guruhlaridan bittadan o‘quvchi bo‘lishi shart. O‘quvchi o‘rganib kelgan materiallarni o‘z guruhi o‘quvchilariga o‘rgatish javobgarligini bo‘yniga olish lozim. Bu jarayon o‘quv materiallarining o‘zlashtirish zarurligiga qarab yana bir soat davom etishi mumkin.



10. O'quvchilar bir-birlaridan axborotlarni o'rganishib bo'lishgach, o'qituvchi oldindan rejalashtirgan faoliyat turini o'tkazishi mumkin.

Munozara. Bu metod yordamida o'quvchilarga muayyan muammo bo'yicha to'liq axborotlar yetkaziladi, munozara uchun tanlangan mavzuni o'quvchilar ayovsiz "shturm" qiladilar va pirovard natijada muammoga tegishli ma'lumotlarni atroflicha o'rganalidar.

Munozarani o'tkazish metodikasi:

1. Munozara olib boruvchi-boshlovchi (o'qituvchi, jurnalist, boshliq va hokazo) mavzuni oldindan tanlaydi va ishtirokchilarni taklif etadi.

2. Boshlovchi ishtirokchilarga "aqliy hujum" topshirig'ini beradi va uning qoidalarini tushuntiradi:

- "hujum"dan maqsad – muammo yechimiga oid variantlarni mumkin qadar ko'proq taklif etish;

- o'z aql-idrokingizni markazlashtirishga harakat qiling va diqqatni muammo yechimiga qaratgan holda fikrlar bildiring. Bildirilgan g'oyalar umumiy fikrga zid bo'lsada, hech biri rad etilmaydi;

- boshqa ishtirokchilar g'oyalarini ham rivojlantiring;

- taklif etilganlarni baholashga urinmang, bu ish bilan siz keyinroq shug'ullanasiz.

Shunday qilib, yuqoridagi interfaol metodlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish asosida ta'lim samaradorligini oshirish va ta'lim jarayoniga texnologik yondashish mumkin.

Maqola bo'yicha xulosa

Ona tili darslarida interfaol yondashuvni qo'llash o'quvchilarning leksik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuv, avvalo, dars jarayonida o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga, o'z fikrini erkin bayon qilishga va muloqotda faol qatnashishga undaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlardan – klaster, aqliy hujum, "insert", "shaxmat taxtasi", rolli o'yinlar va boshqa texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarning so'z boyligini kengaytirish, sinonim, antonim, frazeologizmlar kabi leksik birliklarni to'g'ri va samarali qo'llay olish qobiliyatlari ancha oshadi. Bunday uslublar, shuningdek, darsni jonlantirish, o'quvchilarni o'zaro hamkorlikka jalb qilish, tanqidiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Shu asosda aytish mumkinki, interfaol yondashuv ona tili darslarining samaradorligini oshiribgina qolmay, balki o'quvchilarda leksik kompetensiyaning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Kelgusida bu yo'nalishda metodik ishlanmalarni takomillashtirish, milliy mentalitet va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduraimova . M. Ona tili darslarida o'quvchilar nutqini ko'makchili birikmalar bilan boyitish. Toshkent : « O'qituvchi », 1985-y.
2. A'lamova. M.G. Do'stxo'jayeva N. O'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda bayonning ahamiyati. Ta'lim bo'g'inlarida ona tili o'qitish mazmunini yangilash asoslari, 26-27 - bet.
3. Baqaxonova Sh. So'z yasalishi darslarini o'tishda o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish. Ta'lim jarayonida so'z boyligini oshirishning asosiy omillari. Toshkent: O'qituvchi, 46-b.

